Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixolingvistik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	



PSIXOLOG TALABALARDA KASBIY REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Shukurova Nargiza Ikramovna

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Orcid: 0009-0007-0081-4783

Annotatsiya: Ushbu maqola psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar faoliyatida kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlarini aniqlash va tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda reflektiv ong, meta-kognitiv jarayonlar, shaxsiy-professional identifikatsiya hamda ijtimoiy-psixologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada kasbiy refleksiyaning rivojlantirish jarayonida motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid va reflektiv-baholash komponentlarining roli ochib berilgan. Shuningdek, interaktiv metodlar, reflektiv mashqlar, psixologik treninglar va muammoli vaziyatlar asosida refleksiyaning shakllantirish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy refleksiya psixologiya yo'nalishi talabalari kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda markaziy determinant sifatida namoyon bo'ladi va uning rivoji shaxsiy o'sish, professional identifikatsiya hamda psixologik moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kasbiy refleksiya, psixologiya talabasi, reflektiv ong, determinantlar, metakognitsiya, professional identifikatsiya, psixologik trening, reflektiv faoliyat.

Abstract: This article examines the educational and psychological determinants of developing professional reflection in psychology students. The study explores the interrelationship between reflective consciousness, metacognitive processes, professional identity formation, and socio-psychological factors. The findings indicate that professional reflection acts as a key determinant in shaping the professional competence, personal growth, and adaptive capacity of future psychologists. The study also analyzes the structural components of professional reflection, including motivational, cognitive, activity-based, and reflective-evaluative aspects. Special attention is given to the role of the educational environment and interactive learning methods in enhancing students' reflective skills. Furthermore, the necessity of implementing specialized psychological and pedagogical technologies aimed at developing a reflective culture among future professionals is substantiated.

Key words: professional reflection, psychology student, reflective consciousness, determinants, metacognition, professional identity, psychological training, reflective activity.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу воспитательно-психологических детерминант развития профессиональной рефлексии у студентов-психологов. Рассматриваются взаимосвязи между рефлексивным сознанием, метакогнитивными процессами и профессиональной идентификацией. Выявлено, что профессиональная рефлексия является ключевым фактором формирования профессиональной компетентности будущих психологов и способствует их личностному и профессиональному росту. В статье также анализируются основные компоненты профессиональной рефлексии, включая мотивационный, когнитивный и поведенческий аспекты. Особое внимание уделяется роли образовательной среды и интерактивных методов обучения в развитии рефлексивных навыков студентов. Кроме того, обосновывается необходимость внедрения специальных психолого-педагогических технологий, направленных на формирование рефлексивной культуры будущих специалистов.

Ключевые слова: профессиональная рефлексия, студент-психолог, метакогниция, детерминанты, рефлексивное сознание, профессиональная идентификация, психологический тренинг, рефлексивная деятельность.

KIRISH

Zamonaviy psixologik ta'lim tizimi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va inson faoliyatining murakkablashuvi sharoitida mutaxassisdan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qila olishni, refleksiya qilishni va uzluksiz professional rivojlanishga tayyor bo'lishni ham talab etadi. Shu jihatdan kasbiy refleksiya psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabaning shaxsiy va

kasbiy shakllanishida markaziy determinant sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda refleksiya tushunchasi turlicha talqin etiladi.

Xususan, John Dewey refleksiyani "tajriba ustida ongli fikrlash va uni qayta ko'rib chiqish jarayoni" sifatida izohlaydi. Donald Schön esa refleksiyani professional faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish mexanizmi sifatida talqin qiladi. Lev Vygotsky refleksiya jarayonini yuqori psixik funksiyalar bilan bog'lab, uni shaxsning ongli rivojlanishining muhim omili sifatida ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar refleksiyaning nafaqat bilish jarayoni, balki shaxsning o'zini anglash va rivojlantirish mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi.

Kasbiy refleksiya shaxsning o'z kasbiy faoliyatini, tajribasini, qarorlarini va hissiy reaksiyalarini ongli ravishda anglash, tahlil qilish hamda baholash jarayonidir. U psixologik faoliyat samaradorligini oshirish, professional xatolarni kamaytirish hamda muammoli vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlanishi ularning professional identifikatsiyasi, empatik qobiliyatlari, kommunikativ kompetensiyasi hamda diagnostik va konsultativ faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki psixolog mutaxassis uchun nafaqat bilim, balki o'z ichki holatini anglash, mijoz bilan o'zaro ta'sirni tahlil qilish va o'z faoliyatini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega (Rubinshteyn, 2000; Leontyev, 2005). Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida kasbiy refleksiyani rivojlantirish jarayoni yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ta'lim jarayonida refleksiya ko'pincha epizodik xarakterga ega bo'lib, uning metodik asoslari, shakllari va rivojlantirish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, kasbiy refleksiyaning tarbiyaviy-psixologik determinantlari, ya'ni motivatsion, kognitiv, ijtimoiy va shaxsiy omillar tizimi kompleks tarzda o'rganilmaganligi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlar refleksiyani rivojlantirishni faqat individual jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va pedagogik muhit bilan bog'liq tizimli hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Xususan, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, refleksiv mashqlar, psixologik treninglar va muammoli vaziyatlar orqali talabalar refleksiv faoliyatga jalb etilganda, ularning kasbiy ong va identifikatsiyasi samarali shakllanadi (Brookfield, 2012; Kolb, 1984). Shu nuqtai nazardan, psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyani rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda refleksiyani rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqola aynan shu muammoni kompleks yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, refleksiv ongni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini ochib beradi.

Muammoning o'rganilganlik holati. Kasbiy refleksiya muammosi psixologiya va pedagogika fanlarida ko'p qirrali ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, uning nazariy asoslari faoliyat yondashuvi, metakognitiv nazariya va refleksiv ta'lim konsepsiyalari bilan bog'liq holda rivojlangan. Refleksiya tushunchasi dastlab John Dewey tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, u "tajriba ustida ongli fikrlash va uni qayta ko'rib chiqish jarayoni" sifatida izohlangan [Dewey, 1933: 78]. Keyinchalik Donald Schön refleksiyani professional faoliyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilib, "reflection-in-action" va "reflection-on-action" tushunchalarini ilmiy asoslab bergan [Schön, 1983: 54]. Refleksiya jarayonining psixologik asoslari Lev Vygotsky va Sergey Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasi doirasida keng yoritilgan. Vygotsky refleksiyani yuqori psixik funksiyalar bilan bog'lab, uni ijtimoiy-madaniy rivojlanish mahsuli sifatida talqin etadi [Vygotsky, 1978: 112], Rubinshteyn esa uni shaxsning ongli faoliyatini tashkil etuvchi mexanizm sifatida ko'rsatadi [Rubinshteyn, 2000: 214].

Metakognitiv yondashuv doirasida refleksiya John Flavell tomonidan shaxsning o'z bilish jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish qobiliyati sifatida izohlanadi [Flavell, 1979: 906]. Bu yondashuv refleksiyani nafaqat tahlil, balki o'z-o'zini boshqarish mexanizmi sifatida tushunishga imkon beradi. Shuningdek, transformativ ta'lim nazariyasi asoschisi Jack Mezirow refleksiyani shaxsning dunyoqarashi va tajribasini qayta ko'rib chiqish jarayoni sifatida baholaydi [Mezirow, 1991: 96]. Uning fikricha, refleksiya orqali inson o'z stereotiplarini anglaydi va yangi bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy refleksiya psixolog mutaxassisning professional kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Xususan, Stephen Brookfield refleksiyani tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida asoslaydi [Brookfield, 2012: 45], David Kolb esa tajribaviy o'rganish modelida refleksiyani bilim hosil qilishning markaziy bosqichi sifatida ko'rsatadi [Kolb, 1984: 38].

Mahalliy olimlardan Z.T. Nishonova refleksiyani shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoni sifatida talqin qilib, uning psixologik rivojlanishdagi ahamiyatini asoslab bergan [Nishonova, 2018: 67]. N. Karimova esa ta'lim jarayonida refleksiv metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ta'kidlaydi [Karimova, 2020: 52]. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyani aynan tarbiyaviy-psixologik determinantlar tizimi asosida kompleks o'rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ko'pgina tadqiqotlar refleksiyani umumiy pedagogik yoki metakognitiv jarayon sifa-



tida yoritadi, biroq uning motivatsion, ijtimoiy, shaxsiy va tarbiyaviy omillar bilan o'zaro bog'liqligi chuqur tahlil qilinmagan. Demak, psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlarini aniqlash, ularning tizimli modelini ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etish ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy muammosi sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirish muammosini yangi ilmiy yondashuv asosida yoritib berishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari tizimi ilk bor kompleks tarzda ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, kasbiy refleksiya jarayonining motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid va reflektiv-baholash komponentlardan iborat strukturaviy modeli ishlab chiqilib, tizimlashtirilgan. Tadqiqot jarayonida psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda refleksiv ongning shakllantirishga ta'sir etuvchi ichki (shaxsiy, motivatsion, metakognitiv) va tashqi (ta'lim muhiti, pedagogik ta'sir, ijtimoiy omillar) determinantlarning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, kasbiy refleksiyaning rivojlantirishda interaktiv metodlar, refleksiv mashqlar va psixologik treninglarning samaradorligi eksperimental asosda isbotlangan.

Tadqiqot natijasida refleksiv faoliyat orqali psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda professional identifikatsiya va kasbiy kompetensiyaning shakllanish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslangan hamda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishga qaratilgan amaliy metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy natijalar asosida psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning konseptual modeli taklif etilgan. Ushbu model refleksiv jarayonning bosqichma-bosqich shakllanishini ifodalaydi va o'zaro bog'liq to'rt asosiy komponentdan iborat: motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid va reflektiv-baholash. Modelga ko'ra, refleksiya rivojlanishi dastlab motivatsion bosqichda, ya'ni kasbga qiziqish, o'zini rivojlantirish ehtiyoji va ichki motivatsiya shakllanishi orqali boshlanadi.

Keyingi bosqichda talabalar o'z fikrlash jarayonlarini anglash, metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish va analitik tafakkurni shakllantirish orqali kognitiv darajaga ko'tariladi. Faoliyat bosqichida esa treninglar, keystadilar, interaktiv metodlar va muammoli vaziyatlar asosida refleksiv tajriba orttiriladi. Zamonaviy tadqiqotlar (Schön, 1983; Mezirow, 1991; Flavell, 1979) shuni ko'rsatadiki, refleksiya metakognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxsning o'z fikrlashini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jarayonning yakuniy bosqichi – reflektiv-baholash bosqichida talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va o'zini baholash ko'nikmalarini egallaydi. Ushbu bosqich refleksiyaning chuqurlashuvi va mustahkamlanishini ta'minlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kasbiy refleksiya chiziqli emas, balki siklik (aylanma) xarakterga ega murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Ya'ni, refleksiya natijasida olingan tajriba va anglangan bilimlar qayta motivatsion sohaga ta'sir ko'rsatib, shaxsda yangi maqsadlar, ehtiyojlar va kasbiy yo'nalganlikni shakllantiradi. Natijada refleksiya jarayoni takroriy bosqichlar orqali chuqurlashib boradi va uzluksiz rivojlanish dinamikasini hosil qiladi. Bu esa refleksiyaning nafaqat tahlil vositasi, balki professional o'sishning doimiy harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ilmiy manbalarda (Schön, Mezirow) refleksiyaning aynan shu siklik tabiati shaxsning tajribani qayta konstruksiya qilish qobiliyati bilan izohlanadi. Refleksiya orqali psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talaba o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqadi, mavjud stereotiplarini tahlil qiladi va yangi bilim hamda ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu jihatdan refleksiya metakognitiv nazorat va o'z-o'zini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari refleksiyaning rivojlanishi psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning nafaqat kasbiy kompetensiyasiga, balki ularning bir qator muhim psixologik sifatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Xususan, emotsional intellekt talabalar o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsional holatini to'g'ri idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi; empatik qobiliyatlar mijoz yoki suhbatdoshning ichki holatini chuqur his qilish hamda unga mos psixologik yondashuvni tanlash imkonini beradi; kommunikativ madaniyat esa muloqot jarayonida refleksiv tahlil orqali nutq, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi. Mazkur sifatlarning rivojlanishi psixolog mutaxassis faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki psixologik faoliyatning o'zi refleksiv va interaktiv xarakterga ega bo'lib, unda shaxsning ichki dunyosini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, aniqlanishicha, refleksiya darajasining oshishi talabalarda o'z-o'zini anglash (self-awareness), o'zini boshqarish (self-regulation) va kasbiy o'zini identifikatsiya qilish (professional identity) kabi jarayonlarning faollashuviga olib keladi. Bu esa refleksiyaning shaxs rivojlanishidagi ko'p darajali va tizimli rolini tasdiqlaydi.

Bundan kelib chiqib, refleksiyaning faqat individual psixik jarayon sifatida emas, balki integrativ psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. U shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlarini birlashtiruvchi mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi. Shu sababli kasbiy refleksiyaning rivojlantirish psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Yana bir muhim jihat shundaki, reflektiv faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muhitining xususiyatlariga bog'liq. Refleksivlikni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit, ya'ni ochiq muloqot, erkin fikr almashinuvi, psixologik xavfsizlik va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy atmosfera mavjud bo'lgan sharoit refleksiya rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Aksincha, rigid va nazoratga asoslangan muhit reflektiv jarayonlarning cheklanishiga olib keladi. Shu tariqa kasbiy refleksiya psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabaning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning shaxsiy sifatleri, kasbiy ong va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ko'p funksiyali tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, aniqlanishicha, reflektiv faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muhitining reflektivlik darajasi bilan belgilanadi, ya'ni ochiq muloqot, psixologik xavfsiz muhit va erkin fikr almashinuvi mavjud bo'lgan ta'lim jarayonida refleksiya ancha samarali rivojlanadi. Natijada mazkur model asosida psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanadi, ularning professional kompetensiyasi oshadi hamda shaxsiy va kasbiy o'sish jarayoni ta'minlanadi. Shu tariqa kasbiy refleksiya psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabaning professional ongini shakllantiruvchi integrativ psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi va uning rivojlanishi zamonaviy psixologik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

Ekspirimental tadqiqot natijalari psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik-psixologik ta'sir vositalari, xususan reflektiv mashqlar, metakognitiv topshiriqlar, interaktiv metodlar va psixologik treninglar samarali natija berishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida tajriba-sinov ishlari asosida talabalar reflektiv faoliyatining dinamikasi, o'z-o'zini anglash darajasi, kasbiy identifikatsiyasi hamda metakognitiv ko'nikmalaridagi o'zgarishlar kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, reflektiv mashqlar tizimli ravishda qo'llanganda talabalar refleksiya darajasi sezilarli ravishda oshgan: tadqiqotning dastlabki bosqichida 40 foizni tashkil etgan ko'rsatkich tajriba yakunida 72 foizga yetgan. Shuningdek, metakognitiv ko'nikmalar rivojida ham ijobiy o'zgarishlar aniqlandi: dastlab 35 foiz darajada qayd etilgan ko'rsatkichlar tajriba oxiriga kelib 68 foizga oshgan. Mazkur natijalar talabalar o'z fikrlash jarayonlarini nazorat qilish, muammoni hal etish strategiyalarini ongli ravishda tanlash, o'quv va kasbiy faoliyatini rejalashtirish hamda o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishganini ko'rsatadi. Ayniqsa, psixologiyasi yo'nalishidagi talabalar uchun metakognitiv ko'nikmalarining rivojlanishi kelgusidagi diagnostik, konsultativ va tuzatish ishlari samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarida kasbiy identifikatsiya darajasining ham sezilarli mustahkamlanganligi kuzatildi. Talabalar o'zlarini kelajakdagi psixolog mutaxassis sifatida aniqroq tasavvur qila boshlaganlari, kasbiy rol va mas'uliyatni chuqurroq his etganlari hamda o'z kasbiy pozitsiyasiga nisbatan ongli munosabat shakllantirganlari aniqlandi. Bu esa kasbiy refleksiya bilan professional identifikatsiya o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Ya'ni, talaba o'z faoliyati va ichki kechinmalarini qanchalik chuqur tahlil qilsa, uning kasbiy "Men" obrazi ham shunchalik ravshan va barqaror shakllanadi. Tajriba davomida sifat jihatdan ham muhim o'zgarishlar qayd etildi: talabalar o'z xatolarini tezroq anglay boshlagan, xatolarni mustaqil ravishda aniqlash va tahlil qilish qobiliyati shakllangan. Bundan tashqari, professional qarorlar qabul qilish sifati ham oshgan: talabalar psixologik vaziyatlarni yuzaki emas, balki tahliliy va ko'p omilli yondashuv asosida baholay boshlagan. Yana bir muhim natija sifatida talabalar o'zini tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanganligi qayd etildi. Ular o'z hissiy holati, xulq-atvori, qarorlari va muloqot usullarini mustaqil ravishda qayta ko'rib chiqish, ularga baho berish hamda zarurat tug'ilganda o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy refleksiyaning rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik ta'sir psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga kompleks ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishining tarbiyaviy-psixologik determinantlarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda refleksiyaning shakllantirishining samarali pedagogik mexanizmlarini asoslashga qaratildi. O'tkazilgan nazariy va empirik tahlillar kasbiy refleksiya psixolog mutaxassis tayyorlash jarayonida markaziy o'rin tutishini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy refleksiya psixologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabaning professional kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib, u shaxsning o'z faoliyatini ongli tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek samarali kasbiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga refleksiya jarayoni talabalarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'z



fikrlash jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi hamda professional faoliyatni rejalashtirishni takomillashtiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy refleksiyaning rivojlanishi psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning professional identifikatsiyasi, emotsional intellekti, empatik qobiliyatlari va kommunikativ madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa refleksiyaning faqat kognitiv jarayon emas, balki shaxsning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi integrativ psixologik mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan konseptual model refleksiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ochib berdi: u motivatsion asosdan boshlanib, kognitiv anglash, amaliy faoliyat va reflektiv-baholash bosqichlari orqali rivojlanadi hamda yakunda shaxsning kasbiy va shaxsiy o'sishiga olib keladi. Modelning siklik xarakterga ega ekanligi refleksiyaning uzluksiz rivojlanish jarayoni ekanligini asoslaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari refleksiyaning rivojlantirishda ta'lim muhitining ahamiyatini ham tasdiqladi. Interaktiv metodlar, psixologik treninglar, reflektiv mashqlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan o'quv jarayoni talabalarni faol fikrlashga, o'z faoliyatini tahlil qilishga va professional pozitsiyasini shakllantirishga undaydi. Shu sababli refleksiyaning rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik sharoitlarni yaratish zaruriyati asoslandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirish ularning professional tayyorgarligini oshirish, shaxsiy yetukligini ta'minlash va zamonaviy psixolog mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shu bois refleksiya psixologiya yo'nalishidagi ta'lim jarayonining ustuvor komponentlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mezirow, J. (2020). *Transformative Learning Theory: Contemporary Perspectives*. Routledge.
2. Schön, D. A. (2021). *The Reflective Practitioner in the 21st Century*. Routledge.
3. Kolb, D. A., & Kolb, A. Y. (2021). *Experiential Learning Theory: A Dynamic Approach to Learning*. *Academy of Management Learning & Education*, 20(3), 1-23.
4. Brookfield, S. D. (2021). *Becoming a Critically Reflective Teacher* (3rd ed.). Jossey-Bass.
5. Ryan, M. (2021). *Developing Reflective Practice in Higher Education*. *Teaching in Higher Education*, 26(4), 1-16.
6. Moon, J. A. (2022). *Reflection and Employability: Reflection on Learning and Practice*. Routledge.
7. Farrell, T. S. C. (2022). *Reflective Practice in Language Teaching*. Bloomsbury Academic.
8. Novoa-Echaurren, Á. (2025). *Reflective Practice and Digital Technology in Higher Education*. *Education Sciences*, 15(6), 643.
9. Zheng, H. (2025). *Reflective Practice and Psychological Characteristics in Education*. *Frontiers in Psychology*.
10. Gong, Y. (2025). *Feedback Literacy and Reflective Learning in Students*. *Frontiers in Psychology*.
11. Zhiri, Y. (2025). *Reflective and Reflexive Practices in Learning*. *European Journal of Education*.
12. Khmelivska, O. (2024). *The Role of Reflective Practices in Developing Emotional and Social Intelligence*. *International Journal of Learning, Teaching and Educational Research*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.